



Buyuk tariximizga-buyuk kelajak

(Muhammad Otajonovning fortepiano uchun “Uchrashuv”, “Bahor” asarlari asosida)

Mamayunusova Zarnigor

O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada
san’ati instituti Musiqashunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda Estrada musiqasini rivojlantirish uchun o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan, katta sahnalarda o‘z asarlarining ilk ijrochisi bo‘lish bilan birgalikda jahon musiqasi hazinalaridan joy olgan turli yo‘nalishdagi asarlarni o‘zining individual talqini asosida ijro etgan mohir pianinochi va kompozitor Muhammad Otajonovning hayoti va ijodi haqida. Muhammad Otajonovning “Bahor”, “Uchrashuv” fortepiano asarlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kompozitor, milliy estrada, ixtisoslik, qo‘shiq, cholg‘ulashtirish, tinglovchi, ijrochi, tizim.

Estrada san’ati kundan-kunga rivojlanib, o‘z muxlislari sonini ko‘paytirib bormoqda. Hozirgi kunda “esytada” nomi bilan yuritilayotgan musiqa namunalari tobora ko‘plab tinglovchilar e’tiborini o‘ziga jalb etmoqda. Bugungi kunda radiotelevideniya va turli bayram tantanalari dasturlaridan keng o‘rin olgan bu turdagi musiqa nafaqat yoshlarni, balki jamiyatimizning turli yoshdagi millionlab vakillari ongi va ma’naviyatiga sezilarli ta’sir o‘tkaza boshladi.



Estrada san'ati O'zbekistonda 1950-yillardan boshlab rivojlandi. Uning birinchi asoschilari Botir Zokirov va Enmark Salixovlardir. Shu kungacha san'atning buy o'nalishida juda katta yutuqlarga erishildi. Kompozitorlar Sh.Ramazanov, I.Akbarov, E.Salixov, M.Leviyev, M.Burxonov, E.Qalandarov, V.Milov va boshqalar avval xalq folklore qo'shiqlari estrada yo'nalishiga moslashtirib, keyinchalik esa o'zlari shu yo'nalishda ijod qila boshladilar. Hozirgi kunda ijod qilib kelayotgan hamda o'zining mustahkam o'rniga ega va o'quvchilarning ma'naviy dunyosini yanada kengayishida o'z hissasini qo'shib kelayotgan kompozitorlaridan biri Muhammad Otajonovdir.

Kompozitor Muhammad Otajonov 1959 yil 16 sentyabrda Urganch shahrida tug'ilgan. 1982 yilda Toshkent davlat konservatoriyasini fortepiano, 1989 yilda bastakorlik ixtisosliklari bo'yicha tugatgan. O'zbekiston davlat konservatoriyasi bastakorlik va cholg'ulashtirish kafedrasida dotsenti. M.Otajonov Respublika qo'shiqlar va Respublika pianinotchilar tanlovlari sovrindori.

M.Otajonovning asarlari professional darajada yaratilganligi, o'zining milliyligi, serjiloligi bilan ajralib turadi. Kompozitor ijodiy faoliyati jarayonida bir qator janrlarga murojaat etgan. Forteplano va orkestr uchun №1, №2 Konsertlari, chang va xalq cholg'u orkestri uchun Konsert, simfonik orkestr uchun syuitalar, kamer cholg'u asarlari, "Bobur", "Chirog'imni kim yoqadi", "Dilbar yuraklar" musiqali dramalari, "Gunoh" filmiga yaratilgan musiqa kompozitor ijodining yorqin namunalarini tashkil etadi. "Shirin xotira", "Yashnagan o'lkamga boq", "O'zing yagona", "Ona yurtim" kabi 50 dan ortiq qo'shiqlari, "Qarashlaring", "Shirin xotira", "Sog'indim", "Yashnagan o'lkamga boq", "Gulchehra qiz o'ynasin", "To'y bo'lsin", "Ona yurtim" estrada qo'shiqlari tinglovchilar tomonidan yuqori baholangan. Bolalar qo'shiqchiligi va ijrochiligi borasida ham kompozitor bir qator samarali yutuqlarga erishdi. 2000 yilda kompozitorning bolalar uchun "Guldasta" nomli fortepiano pesalari to'plami nashr etildi. "Sho'x chumchuq", "Bolalarning ko'zlari",



“Onajon O‘zbekiston”, “Yurt diyori” kabi 50 ga yaqin bolalar uchun yaratgan qo‘shiqlari jajji va o‘smir bolajonlar tomonidan sevib kuylanib kelinmoqda.

M.Otajonov Respublikamiz bo‘ylab ko‘pgina musiqa maktablari, kollejlari va litseylarda muntazam konsert uchrashuvlar tashkil etib, kelmoqda. Kompozitorning asarlari “Mustaqillik” va “Navro‘z” davlat tantanalarida ham muntazam ijro etib kelinmoqda. Xususan, kompozitor qalamiga mansub “Jajji go‘zal” qo‘shig‘i “Bulbulcha” bolalar xor jamoasi tomonidan 2001 yil Navro‘z davlat bayrami konsertida muvaffaqiyatli yangradi.

1996-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan Xalq ta’limi tizimidagi “O‘zbekiston Vatanim manim” Respublika qo‘shiqlar ko‘rik tanlovining doimiy qatnashchisi, g‘olibi, hay’at raisi va a’zosi. 2003 yilda Toshkent shahar tizimidagi qo‘shiq bayrami ko‘rik tanlovida hakamlar hay’ati raisi sifatida qatnashdi. Kompozitorning “Qashqadaryo”, “Urganch”, “Navoiy” nomli qo‘shiqlari Shahrisabz, Xiva, Navoiy shaharlarida bolalar tomonidan gala konsertlarda muvaffaqiyatli ijro etib kelinmoqda.

Muhammad Otajonovning “Bahor” fortepiano pesasi o‘zining yorqinligi bilan boshqa pesalardan ajralib turadi. Allegro tempida, D-dur tonalligida ijro etiladi. Musiqa bezaklari trellardan foydalanilgan. Gamafon fakturada yozilgan. Og‘ishmalar mavjud.

№ 6. Баҳор





“Uchrashuv” nomli pyesa moderato tempida 6/8 o‘lchovida yozilgan. 6 takt kirish qismdan iboratdir. Kirish qismi f-moll tonalligida ijro etiladi.

1-qism C-dur tonalligida ijro etiladi. Gomafon garmonik fakturada yozilgan.

№10. Учрашув



Fortepiano musiqasi Muhammad Otajonovning eng muhim, yorqin va Keng ko‘lamli ijod yo‘nalishi hisoblanadi. Aynan shu pianizm va kompozitorlikning badiiyligi, o‘ziga xosligi bir-biri bilan mutanosib uyg‘unlashadi. Muhammad Otajonov fortepiano uchun asar yozishga shoshilmadi. U o‘zini tayyor deb bilgan paytidan boshlab bu ulug‘ san’atga qadam qo‘yishni boshladi.

Xulosa qilib shuni aytoลามanki, O‘zbek milliy estrada san’ati uzoq bo‘lmasa ham o‘zining mustahkam o‘rniga ega. Bunday boy merosni yaratishda hamnafas ijodkor, kompozitor Muhammad Otajonov ham o‘zining ulkan hissasini qo‘shib kelmoqda. Biz yoshlar bundan zavqlanib, o‘rnak olgan holda, qo‘ldan kelgancha o‘qib-izlanib harakatda davom etishimiz zarur. Bu bizning estrada san’atimizni dunyolarga tanitishda qo‘shgan ilk hissamiz bo‘la qolsin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sodat Jo‘rabekova “Kompozitor Muhammad Otojonov” T.,2021
2. Uzm.wikipedia.org